

Mavzu: Mantiq

A.S.Ravshanov

Reja:

- 1) Tafakkur – mantiq ilmining o‘rganish obyekti sifatida.**
- 2) Mantiq ilmining nazariy va amaliy ahamiyati.**
- 3) Formal mantiqning asosiy qonunlari.**

Tayanch tushunchalar.

- **Tafakkur – mantiq ilmini o‘rganish obyekti.**
- **Tafakkur qonuni – fikrlar o‘rtasidagi zarur aloqa.**
- **Tushuncha – predmetlarning umumiy muhim belgilarini aks ettiruvchi mantiqiy shakl.**

**“Mantiq”
tushunchasi**


**Arabcha so‘z bo‘lib,
«so‘z, fikr,
aql» ma’nolarini
anglatadi. Yunoncha
logika so‘ziga muvofiq
keladi, mazkur atamaning
dastlabki ma’nosini
donolikka muhabbat deb
talqin qilish mumkin.**

Mantiq

**Dialektik
mantiq**

**Matematik
mantiq**

**Formal
mantiq**






Mantiq fanining bahs mavzusi va vazifalari.



Mantiq fanining o‘rganish obyekti tafakkur hisoblanadi.

Mazkur fan tafakkur shakllari, qonunlari va usullari to‘g‘risida bahs yuritadi



- 
- 
- ▶ **Formal mantiq qonunlari (yoki tafakkur qonunlari) deyilganda fikrlashga xos muhim, zaruriy bog‘lanishlar tushuniladi.**
 - ▶ **Tafakkur qonunlariga amal qilish to‘g‘ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi.**

▶ **Falsafada qonun tushunchasi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarini ifodalaydi. Formal mantiq ilmida esa qonun tushunchasi fikrlash elementlari o‘rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi.**

- ▶ **Formal mantiq qonunlari (yoki tafakkur qonunlari) deyilganda fikrlashga xos muhim, zaruriy bog‘lanishlar tushuniladi.**
- ▶ **Tafakkur qonunlariga amal qilish to‘g‘ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi.**

Qonunlar



**Ayniyat
qonuni**

**Nozidlik
qonuni**

**Formal
 mantiq
 qonunlari**

**Uchinchi
 istisno
 qonuni**

**Yetarli asos
 qonuni**



Ayniyat qonuni – to‘g‘ri, mantiqiy fikrlashning muhim qonunlaridan biri. Ayniyat qonuni mantiq fani (formal mantiq)da o‘rganiladi. Ayniyat qonuni ham tafakkurning boshqa qonun va shakllari singari predmet, hodisalarning ma‘lum ob‘ektiv xususiyat va munosabatlarini aks ettiradi.

Nozidlik qonuni - mantiqiy mulohaza ziddiyatsiz bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ziddiyatlilik [mulohazani buzadi](#), bilish jarayonini qiyinlashtiradi. Tafakkurning ziddiyatsizligi talabi formal mantiqning nozidlik qonunida o'z ifodasini topadi. Nozidlik qonuniga ko'ra ikki zid mulohaza bir vaqtda yoki ayni bir nisbatda birdaniga to'g'ri yoki birdaniga xato bo'la olmaydi har doim ulardan biri to'g'ri bo'lsa, ikkinchisi xato bo'ladi.

Uchinchi istisno qonuni — formal mantiqning asosiy qonunlaridan biri. Dastlab Aristotel ifodalab bergan. Bu qonunga ko‘ra, birbiriga zid bo‘lgan ikki fikrdan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchi fikrga o‘rin bo‘lishi mumkin emas. Bu qonun qaysi fikrning chinligini ko‘rsatib bera olmaydi, lekin qaysi fikrdan biri to‘g‘ri bo‘lsa, keyingisi albatta noto‘g‘riligini bildiradi.

Yetarli asos qonuni - har bir fikrning asosli, isbotlangan bo'lishi, boshqa fikrlar bilan zaruriy bog'liqligi haqidagi mantiqiy qonun.

Asoslanishning subyektiv xarakterda bo‘lgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taaluqli bo‘lmagan usullar ham mavjuddir. Bular:

1. Intuitsiya – lotincha intutito so‘zidan olingan bo‘lib “Diqqat bilan tikel qarayman” degan ma’noni bildiradi.

2. E’tiqod.

3. Avtoritet (autoritas – hokimiyat, ta’sir)

4. Urf – odatlar.

Mavzuga doir savollar.

- 1. Mantiq deganda nimani tushunasiz?
- 2. Tafakkurning qaysi mantiqiy qonunlarini bilasiz?
- 3. Formal mantiqning vazifalari nimalardan iborat?
- 4. Mantiq ilmining milliy mafkurani yaratishdagi ahamiyati nimada?